

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Neft va gaz fakulteti

Ochilov Fazliddin Shokir o‘g‘lining

**“Kruk koni neft qazib oluvchi quduqlarida qazib olish ko‘rsatkichlarini
oshirish” mavzusida**

**5311900-“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish”
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri:_____
dots. t.f.n. Ermatov N.X.
“ _____ ” _____ 2018 y.

Rahbar:_____
Nomozov B.YU.
“ _____ ” _____ 2018 y.

Qarshi – 2018y.

MUNDARIJA

Kirish.....	6
1. Geologik kism.....	9
1.1.Kuruk konining umumiy ma'lumotlari.....	9
1.2. Litologo-stratigrafik xarakteristikasi.....	12
1.3.Tektonika.....	14.
1.4. Qirqimning gologo-geofizik tavsifi.....	15
1.5. Konning gidrogeologik tavsifi.....	16
1.6. Neftgazliligi.....	17
1.7.Neft gaz va kondensat zaxirasi.....	19
2.Asosiy qism.....	19
2.1.Konning qisqacha geologik ta'rifi.....	19
2.2.Quduqlar majmui.....	20
2.3.Neft qazib olish.....	20
2.4.Neft qatlami va quduqlarning suvlanganligi.....	23
2.5.Qatlam bosimi dinamikasining o'zgarishi.....	23
2.6. Qatlamga suv haydash ishlari.....	23
2.7. Gaz miqyosining dinamik o'zgarishi.....	24
2.8.Quduq tubi atrofiga ta'sir etish usullari.....	24
2.9.Quduqqa tuz kislotali ishlov berish.....	25
2.10. Issiqlik kimyoviy va issik kislotali ishlov berish.....	29
2.11. Quduq tubiga issiqlik usulida ta'sir etish.....	30
2.12. Qatlamni gidravlik yorish.....	30
2.13. Maxsuldor qatlamni qumsuyuqlik aralashmasi bilan teshish.....	35
2.14.Quduqlarni torpedalash.....	36
2.15. 2017 yilda davomida konda qilingan ishlar haqida ma'lumot.....	38
3. Atrof muhit muhofasi.....	41
3.1. Er osti boyliklarini muhofaza qilish.....	41
3.2. Er osti boyliklarini muhofaza qilishni tashkillashtirish.....	42

3.3. Neft va gazni qidirishda, ishlatishda va saqlashdagi muhofaza qilish tadbirlari.....	44
3.4. Atmosfera havosini himoya qilish.,.....	49
4. Mehnat muhofazasi va texnika havfsizligi.....	50
4.1. Mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorati tashkilotlari....	50
4.2. Ishdagi muvaffakkiyatlari uchun rag‘batlantirish.....	50
4.3. Korxona haqida umumiy ma’lumot.....	51
4.4. Ishlab chiqarish sanitariyasi.....	51
4.5. Sanoatni yoritish.....	54
4.6. Tebranishdan va shovqindan ximoyalash.....	56
4.7. Kislota va ishqorlardan jarohatlanish va zaharlanish.	57
4.8. Sanoat chiqindilarini tozalash.....	59
4.9. Gazlarni changdan va suyuqlik zarrachalaridan tozalash.....	60
4.10. Ifloslangan suvni tozalash usullari.....	61
5.Iqtisodiy qism.....	63
5.1. Neft va gaz sanoatini reja asosida ishlatishning samarasi.....	63
5.2.Konlar bo‘yicha neft va gaz qazib olishni rejalashtirishning xususiyatlari.....	64
5.3. Kruk konini ishlatishning iqtisodiy tahlili.....	64
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	69

Kirish.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Respublikamiz hayotida ijobiy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning boy tabiiy va ishchi kuchi zahiralaridan fan va texnikaning so'ngi yutuqlariga tayangan holda foydalanib, yurtimiz iqtisodiyotini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro energetika tizim va dast avval uning gaz segmentida kattagina o'rinni egallagan. Oxirgi yillarda mamlakatda tabiiy gaz qazib olish o'smoqda hamda gaz zahiralarining ko'payishi kuzatilmoqda. Bu energetika soxasiga davlat miqyosidagi e'tibor va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoyalash chora tadbirlarining sharofatidir. Puxta o'ylangan davlat siyosati natijasida energetika sektori xorijiy neft gaz kompaniyalarining diqqat e'tiborini tortib ular O'zbekistondagi turli energetik loyihalarga investitsiya kiritmoqdalar.

Jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan neft va gaz sohasida mazkur ustuvor vazifani hal qilishda yurtimizda faoliyat olib borayotgan neft va gaz sanoati korxonalarida yetakchi mutaxassislar qatori barkamol avlod hissasi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlar safidan munosib o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi neft va gaz sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali tovar mahsulotlarning sifatini jahon andazalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-25 fevral kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifida neft va gaz sohasiga keng to'xtalib o'tdi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati ulkan. Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyb 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi ushbu viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Viloyatda sanoat izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulotda bu sohaning ulushi 38 foizni tashkil etayotgani ham shundan dalolat beradi. “Sho‘rtanneftgaz”, “Muborakneftgaz” korxonalari, “Sho‘rtangazkimyo” majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, “Hisorneftgaz” kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatida salmoqli o‘rin tutadi.

Davlatimiz rahbari “Sho‘rtangazkimyo” majmuasining tozalangan metani negizida sintetik suyuq yoqilg‘i (GTL) ishlab chiqarishni tashkil etish va “Sho‘rtangazkimyo” majmuasining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish” loyihalari bilan tanishdi.

“Sho‘rtangazkimyo” majmuasining tozalangan metani negizida sintetik suyuq yoqilg‘i (GTL) ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi gaz-kimyo sanoati yo‘nalishida dunyoning ilg‘or texnologik yechimlarini o‘zida aks ettirgan. Ushbu loyiha MDH doirasida eng yirik mega-loyihalardan biridir.

Loyiha “O‘zbekneftgaz” kompaniyasi ta‘sischiligida amalga oshirilishi mamlakatimizning yoqilg‘i-energetika xavfsizligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lishi barobarida, sohaning jadal sur‘atlarda taraqqiy etayotganidan dalolat beradi.

Loyiha doirasida yiliga 3,6 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlash orqali 1,5 million tonna yuqori sifatli “Yevro-5” talablariga javob beradigan sintetik yoqilg‘i ishlab chiqariladi. Shundan 743 ming tonnasi dizel yoqilg‘isi, 311 ming tonnasi aviakerosin, 431 ming tonnasi nafta va 21 ming tonnasi suyultirilgan gazni tashkil etadi [1].

Neft va gaz qazib chiqarishning o‘shishiga konlarni ishlatish samaradorligini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi, bunga esa zamonaviy texnologiyalar va texnikalarni qo‘llash, mavjud texnika va qurilmalardan modernizatsiya ishlarini olib borish xisobiga erishildi.

Bugungi kunda neft, gaz va gazkondensat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi, aholini toza gaz bilan ta‘minlash, transport vositalarini yoqilg‘i resurslari bilan uzluksiz ta‘minlash uchun geologik qidiruv ishlarini kuchaytirish yangi maydonlarda konlarni ochish va ishga tushirish, eski konlarni

yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash zarur. Aholini toza gaz bilan ta'minlashda quduqlardan qazib olinayotgan gazlarni konning o'zida sifatli tayyorlash muhim ahamiyatga ega chunki qazib olinayotgan gazlar tarkibida suv bug'lari, mexanik zarrachalar, agressiv gazlar bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirish, jumladan, neft, gaz va kondensat qazib chikarishni ko'paytirish, jadallashtirish va qazib chiqarishni pasayishni oldini olish borasida bir qator ishlar bajarilib, bu usullarni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha ilmiy va amaliy ishlar bajarilmokda. Mavjud texnologiyalarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida men o'z bitiruv malakaviy ishimga «Kruk koni neft qazib oluvchi quduqlarida qazib olish ko'rsatkichlarini oshirish» mavzusini tanladim.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki neft koni quduqlarining mahsuldorligi yildan yilga pasayib ketmoqda. Ayniqsa oxirgi davrlarda ishlayotgan konlarni ishlash ko'rsatkichlarini o'rganib quduq debitini oshirish asosiy dolzarb muammilardan sanaladi.

Kruk koni quduqlarida mahsuldorlikni oshirish usullarini o'rganib samarali usulini qo'llash kerak bo'ladi.

Ishning maqsad va vazifalari. Kruk koni quduqlarining mahsuldorligining pasayish sabablarini o'rganib, oshirish usullarini asoslashdan iboratdir.

2. Geologik kism.

1.1.Kuruk konining umumiy ma'lumotlari.

Administrativ jixatidan Kruk koni O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatida joylashgan. (1.1-pacm).

Shimoliy-sharkdan 30 km da joylashgan eng yaqin shahar markazi bu Buxoro shaxri, 80 km uzoklikda joylashgan Qorovul-Bozor temir yo'llari va 105 km uzoqlikda joylashgan Qarshi shahri.

1.2. Litologo-stratigrafik xarakteristikasi.

Bayon etilayotgan konning geologik tuzilishida yura davri oldi dislakatsiyalangan cho'kindi tog' jinslari, yura, bo'r, poleogen, neogen, antropogen davri yotqiziqlari sistemasi keltirilgan.

Paleozoy gruhi (Pz). Bo'lishi mumkin deb qaralayotgan paleozoy yotqizig'ini o'rganish va aniqlash uchun №1 quduq 29 m qalinlikda burg'ilandi. Bu oraliqda to'q-kul rang , slanetslangan qora argillit va slanetslar, Yotqiziqlar yura davriga mansub ekanligini faunalar tasdiqlamaganligini e'tiborga olsak, yotkiziqlarni yura davrida paydo bo'lganligini shartli deb olamiz. Yura sistemasi (J). Kruk koni yura sistemasi yuqori va o'rta bo'limlarda uchraydi.Ular litologik tarkibiga ko'ra aniq uchta qalinlikka bo'lingan: terrigen (o'rta yura(quyi kellovey), karbonatli (o'rta kellovey(quyi kimeridj) i tuz-angidritli (kimeridj-titon).№1 quduq orqali burg'ilangan va ochilgan yura davri yotqiziqlarini o'rganish uchun 1357 m burg'ılanagan.

1.3.Tektonika.

Kruk koni Chorjuy tektonik qadamini janubiy-sharqidagi Amudaryo egilmasining sharqiy bort zonasida joylashgan. Maydonning asosiy tuzilmasi Ispanli-Chandir va Dengizko'l val sifat ko'tarilmasi bo'lib, bu ko'tarilma Qorako'l egilmasini ajratib turadi. Qruq maydoni Ispanli-Chandir ko'tarilmasi tarkibiga kirib, ko'tarilmalar kub ko'rinishida Kemachi-Zekri maydonlarini janubiy-g'arbiy tomonida uchraydi.

Maydon tuz osti kompleksiga ko'ra Kemachi-Zekri strukturasida Kushob egilmasida uchraydi.

Tuz osti karbonat kompleksi yuqori qismlardagi rif massivlarigi nisbatan bir muncha murakkab, chunki bu yerda , morfologik kontrastda ko'ringan depresiya fassiyalar mavjud. Shunday qilib maydon tashqarisida tuz usti va tuz osti terregen kompleksida antiklinal tutqichlar uchramaydi.

1.4. Qirqimning gologo-geofizik tavsifi.

Kruk konining asosiy mahsuldor qatlami bo'lib, yuqori yura karboat yotkiziklarining XV-RO, XV-R gorizontlari hisoblanadi.

Kollektor tog' jinslarining asosiy hajmi qirqimning (XV-R) rif qatlamida markazlashgan. Tog jinslari asosan ohaktosh, dolomit, chig'anoqli, organogen, marjonsimon ohaktoshlardan iborat bo'lib, aktiv yuqori g'ovakli-o'tkazuvchan qatlamni tashkil etadi. Samarali qalinlik umumiy qalinlikning o'rtacha 77% ni tashkil etadi. Rifli yotkiziklariga yuqori kollektorli xususiyatlariga ega kollektorlar kiradi. (O'rtacha g'ovaklik 16,9 %, o'tkazuvchanlik 290 mD). Dolomitlashgan ohaktoshlar asosan XV-R gorizontining quyi qismida joylashgan, kovaklik katta foizni tashkil etadi.

Rif usti yotqiziqlari (XV-RU gorizont) uchun suv o'tli nim marjonsimon ohaktoshli tog' jinslari xarakterli. Kollektorlar gorizont umumiy qalinligining o'rtacha 24,7 % ni tashkil etadi. Ularning asosiy miqdoriy hajmi gorizontning quyi qismida to'plangan. Kollektorlar kuchsiz (0,4-2,0 m), o'rtacha g'ovakligi - 12,2 %, o'tkazuvchanligi – 318 mD.

Rif osti yotqiziqlari (XV-RO gorizont) zich o'tkazmas ohaktosh va dolomitli qatlamni namoyon etadi .

1.5. Konning gidrogeologik tavsifi.

Kruk koninig gidrodinamik sharoitlari xarakteristikasi chuqurlik monometrlari yordamida rezervuarining suvli qismida bajarilgan qatlam bosimini o'lchash natijalari asosida amalga oshirilgan. Suvli qatlamning qatlam bosimlari

7 ta quduq, jami 13 obyektidan olingan namunalarni o'rganish asosida aniqlangan. Kruk koni qatlam suv bosimi shartli gidrostatik bosimdan bir necha marotaba yuqori, anomallik koeffitsenti 1,04-1,06 ni tashkil etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bir quduq qirqimining turli intervallari har xil keltirilgan bosim kursatkichlariga ega.

Kruk koni yura suv tazyikli kompleksi qatlam bosimi ma'lumolari taxliliga ko'ra, keltirilgan qatlam bosimi kichik diapozonda o'zgaradi (300-308atm).

Demak Kruk koni suvli qatlami tabiiy tarzda yopiq gidrodinamik rejim bilan xarakterlanadi, shu bilan birga bu yerda tarang suv tazyikli rejimni paydo bo'lishini kutish mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan maydon yura suv tazyikli kompleksi qatlam suvlari metamorflashgan namokobli, kalsiy xlorli turiga mansub. Kruk koni qirqimining karbonatli qismi suvlari 95 dan 134 g/l. gacha minerallashganligi bilan xarakterlanadi. Tarkibini asosan xlor (53-83 g/l) va ishqorli metallar (29-38 g/l) tashkil etadi. Mikrokomponentlardan yuqori konsentratsiyada yod (10 - 30 mg/l) va brom (261-362 mg/l), litiy, rubidiy, seziy, stronsiy va germaniy uchraydi.

1.6.Neftegazliligi.

Kruk koni rifli rezervuarlari ikki tuzilmali XV-R va XV-RU va ular massivli turga kiradi. Yuqoridagi gorizontlarga tegishli neft va gaz uyumlari litologik va tuzilmali omillarga asosan nazorat qilinadi. Gaz-neft va suv-neft chegara chizig'i garizontal ko'rinishda o'tishi bilan xarakterlanadi.

1.7.Neft gaz va kondensat zaxirasi.

Kon tajriba sanoat ishlatish uchun 1986 yil may oyidan «SredazNIPIneft» instituti loyihasi bo'yicha ishlatildi, bu davr mobaynida qazilgan qidiruv quduqlarida o'tkazilgan gidrodinamik tekshiruvlar, neft va gazning fizik –ximiyaviy xossalarini aniqlash natijasigi asosan

2.Asosiy qism

2.1.Konning qisqacha geologik ta'rifi.

Kruk koni Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumani territoriyasida joylashgan bo'lib ishlatilayotgan Janubiy Kemachi koni bilan shark tomondan tutash, janubiy tomonida 15 km uzoqlikda Umid koni, 25 km uzoqlikda Shimoliy O'rtabuloq neft konlari joylashgan.

Kruk koni 1984 yil ochilgan. 1986 yil may oyidan 1988 yil oxirigacha «SredneazNIPIneft» instituti loyihasi bo'yicha konni tajriba va sanoat uchun ishlatish amalga oshirildi. Kon yura yotqiziqlari XV-RU va XV-R gorizontlarida joylashgan.

Mahsuldor uyum o'lchamlari quyidagicha:

Neft va gaz maydoni - 8203 m²

Uyumning o'rtacha umumiy qalinligi - 155,66 m

Umumiy neftgazli qatlam qalinligi - 93 m

Neftli qatlam qalinligi - 44 m

Gazli qatlam qalinligi - 49 m

G'ovakligi - 14,6 %

O'tkazuvchanligi - 185 md

Neftning solishtirma og'irligi - 0,871 g/sm²

Gaz-neft va suv-neft tutash yuzalari (GNTYU va SNTYU) konda OAO «O'zbekgeofezika» tadqiqotlar natijasida quduqlarni sinash asosida aniqlangan. GNTYU va SNTYU gorizont tekislikdan iborat deb qabul qilingan va mos ravishda - 2116 m o'tkazilgan.

2010 yilda «UzLITIneyeftegaz» ilmgohi tomonidan «Utochneniye proyekt razrabotki mestorojdeniya Kruk» nomli loyiha tayyorlandi. Shu yil 30 sentabrda «Muborakneftgaz» MCHJ si geologo-texnik yig'ilishida ko'rib chiqilib ishlatish uchun qulay deb 6 - variant qabul qilingan bo'lib hozirgi kunda kon 6-variant asosida ishlatilib kelinmoqda.

2012 yilda OAO«IGNRNIGM» mutaxasislari tomonidan boshlang'ich geologik va olinadigan neft zahiralari qayta hisoblandi. «O'zbekneftgaz»MXK

qoshidagi markaziy zahiralar komissiyasi (MZK) tomonidan tasdiqlangan zahiralar miqdori quyidagicha:

Neft:

- geologik zahirasi - 14832 ming tn.

- olinadigan zahirasi - 6639 ming tn.

2.2.Quduqlar majmui

Umumiy quduqlar majmuasi – 115 ta

Ishlatiladigan neft quduqlar soni – 66 ta

Harakatdagi neft quduqlar soni – 56 ta

Jumladan:

Gazlift quduqlar soni – 25 ta

Chuqurlik nasosi orqali ishlaydigan quduqlar soni – 14 ta

Rotofleks – 16 ta

Harakatsiz quduqlar soni – 8 ta (№№16, 32, 72, 80, 81.84.93, 116)

Suv haydovchi quduqlar soni – 14 ta (№№13, 24, 26, 29, 31, 34, 37, 45, 69,75,90, 95,101,110)

Tugatilishi kutilayotgan quduqlar soni – 27 ta (№5, 8, 11,18, 19, 20, 22, 33, 35, 40, 42, 48, 49, 50, 53, 59, 68, 77, 79, 85, 87, 91, 92, 105,111,114, 115)

Tugatilgan quduqlar soni – 6 ta (№№ 2, 7, 9, 10, 11r,65)

Nazoratdagi quduqlar soni – 1 ta (№ 98)

Quduqlar majmuidan foydalanish koefitsiyenti 2017 yilda 0,57 ni tashkil qilgan. Quduqlar majmuidan foydalanish koefitsiyenti 2016 yilda ham 0,57 ni tashkil qilgan. Quduqlarda o'tkazilayotgan geologik tadbirlar natijasida quduqlar majmuidan foydalanish ko'rsatkichi 2016 yilga nisbatan o'zgarmagan.

2.3.Neft qazib olish

Kondan neft qazib olish 1986 yildan boshlangan. Konni ishlatish jarayonida eng yuqori ko'rsatkichga 1998 yilda erishilgan ya'ni umumiy qazib olingan suyuqlik 387 229 ming m³, neft 286 523 ming tonna, qatlam suvi 100 706 ming m³, suvlanganlik 36 % ni tashkil etgan.

2.4.Neft qatlami va quduqlarning suvlanganligi

Neft quduqlarida qatlam suvining paydo bo'lishi 1986 yildan kuzatilgan.

2017 yilda kondan 667041 m³ qatlam suvi olindi, kon ishlatila boshlangandan buyon 11681452,6 m³ qatlam suvi olindi. Suvlanganlik 2017 yilda o'rtacha 90,7% ni tashkil etdi, loyiha bo'yicha suvlanganlik 89,80% ni tashkil etadi.

2.5.Qatlam bosimi dinamikasining o'zgarishi

Kruk konini o'zlashtirish 1986 yil may oyidan 1990 yilgacha tabiiy ravishda olib borildi. Qatlamning boshlang'ich bosimi 248,0 kgs/sm²ni tashkil etgan. 2017 yil o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yil oxirida qatlam bosimi 155 kgs/sm²ni tashkil etdi.

2.6. Qatlamga suv haydash ishlari

SredazNIPIneft instituti tomonidan 1988 yilda Kruk neft konining «Texnologik ishlatish jadvali» asosida qatlam bosimini saqlash uchun 1990 yildan boshlab suv haydalmoqda. Dastlab suv haydash ishlari 1997 yilgacha 9-MGR surgichlari orqali amalga oshirildi. XV-PU gorizontiga № 91, 92 quduqlar orqali suv haydaldi. XV-R gorizontiga SNTYusi (VNK) ostiga №№ 13, 17, 31, 54, 45, 87, 90, 95 quduqlar orqali suv haydash ishlari boshlandi.

XV-PU gorizontiga suv haydash ijobiy natija bermadi, ya'ni №№21, 22, 23, 30, 32 neft olinadigan quduqlar dinamikasiga o'zgarish bo'lmadi. 1997 yil mart oyidan qatlamga suv haydash tarmog'i BNKS ishga tushirildi, suv SNS-180x1050 nasoslari orqali qatlamga haydalmoqda.

2010 yilda OAO «UzLITIneftgaz» tomonidan «Utochnenniy proyekt razrabotki mestorojdeniya Kruk» qayta tuzildi, shunga kura loyihada 2017 yil qatlamga suv haydash 1121,4 ming.m³ bo'lishi kerak edi. Amalda esa qatlamga 2438 ming.m³ va yil davomida 890095 ming.m³, suv haydash boshlangandan buyon 24096530 ming.tn suv haydaldi. Qatlamga suv Devxona ko'lidan olinmoqda.

Joriy yilda konda o'rtacha kunlik 2056,2 m³ suyuqlik qazib olinmoqda, shu bilan birga qatlam bosimini saqlash maqsadida qatlamga o'rtacha kunlik 2438 m³ suv haydalmoqda.

2.7. Gaz miqyosining dinamik o'zgarishi

2017 yilda kondan 5379 ming.m³ yo'ldosh gaz olinib, umumiy olingan yo'ldosh gaz 433,161 mln.m³. Loyiha bo'yicha esa 2017 yilda gaz miqyosi 0,744 ming.m³ bo'lib, umumiy olingan yo'ldosh gaz 110,41 mln.m³ ni tashkil etadi.

2.8. Quduq tubi atrofiga ta'sir etish usullari

Kam o'tkazuvchan qattiq tog' jinslarida neftning quduq tubi tomon oqimi depressiyaning qancha katta bo'lishiga qaramay kam bo'ladi. Bunday tog' jinslaridan tuzilgan haydovchi quduqlarda qancha katta bosim bilan suvni haydamaylik qabul qilishi juda kichik bo'ladi.

Bu kabi quduqlarda maxsulot oqishini yoki qabul qiluvchanlik darajasini oshirish uchun suniy ta'sir etish usullaridan foydalaniladi. Buning uchun g'ovaklar soni va o'lchamini oshirish, tog' jinsi (g'ovakligini) yorigini kengaytirish, shu bilan birga g'ovakliklarga joylashib qolgan parafin va smolalarni olish kerak bo'ladi.

Quduq tubi atrofiga ta'sir kilish tavsifiga ko'ra quyidagi guruxlarga ajratiladi: mexanik, kimyoviy va issiqlik. Bu usullarni qo'llab yaxshi natija olish uchun, bu usullarni ketma-ket qo'llash yaxshi natija beradi.

Quduq tubi atrofiga ta'sir etish usullari qatlam sharoitiga qarab tanlab olinadi. G'ovak kanalchalar devoriga o'tirib qolgan smola va parafinlardan tozalash va neftning qovushqoqligini pasaytirish uchun termoqimyoviy va issiqlik kimyoviy usullardan foydalanilsa yaxshi natija beradi. Kam o'tkazuvchan karbonat (dolomit, ohaktosh) tog' jinslardan tuzilgan qatlamlarga kislotali ishlov berish usuli qo'l keladi. Mexanik usullari – zich tog' jinslardan tuzilgan maxsuldor qatlamlarda qo'llash yaxshi bo'ladi.

2.9.Quduqqa tuz kislotali ishlov berish

Quduqqa tuz kislotali ishlov berish usuli dastlab faqat karbonat tog' jinslaridan tuzilgan kollektorli konlarda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik uni qo'llash kengaydi.

a) karbonat tog' jinslaridan va tarkibida karbonat, qumtoshi bo'lgan kollektorli konlarda quduq debitini oshirish maqsadida ishlov berish.

b) haydovchi quduqlarning qabul qiluvchanligini oshirish maqsadida quduq tubi atrofiga kislotali ishlov berish .

v) tuz qatlamlarini eritish maqsadida ishlov berish.

g) parafin-smola qoldiqlarini g'ovaklardan tozalash uchun termokislotali ishlov berish.

Tuz kislotali ishlov berish usuli tuz kislotasining karbonat tog' jinslarini eritishiga asoslangan. Bu reaksiya quyidagi tarzda kechadi.

A) ohaktosh uchun $2\text{HCl} + \text{CaCO}_3 = \text{CaCl}_2 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$

B) dolomit uchun $4\text{HCl} + \text{CaMg}(\text{CO}_3)_2 = \text{CaCl}_2 + \text{MgCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O} + 2\text{CO}_2$

Reaksiya natijasida hosil bo'lgan CaCl_2 va MgCl_2 suvda yaxshi eriydi va quduqdan chiqarish oson kechadi. Hozirgi vaqtda kislotali ishlov berishning quyidagi turlari mavjud:

- 1) kislotali vanna;
- 2) oddiy kislotali ishlov berish;
- 3) bosim ostida kislotali ishlov berish;
- 4) issiqlik kimyoviy va issik kislotali ishlov berish;

Kislotali vanna usulida ishlov berishdan maqsad quduq tubi atrofini ifloslovchi modda (sement yoki loyli qobiqlar va karroziya maxsulotlari)dan tozalashdir. Kislotali vanna usuli boshqa usullardan farqi shuki, kislota eritmasi maxsuldor qatlam qalinligi bo'yicha olinib, unda bosim bilan ta'sir qilinmaydi.

Oddiy kislotali ishlov berish usuli eng ko'p tarqalgan usullardan biridir. Quduq tubi atrofiga kislota bostirish yo'li bilan g'ovakliklarni tozalash uchun mo'ljallangan bo'lib, uni bostirish bitta nasos agregati yordamida amalga

oshiriladi. Oddiy ishlov berish usulida ishlov berish uchun 20-35 m³ kislota eritmasi kerak bo'ladi.

Bosim ostida kislotali ishlov berish usuli oddiy usuldan farqi, katta bosim ostida (200,250,300 kgs/sm²) ishlov berilishidir.

Ishlov berish samarasi kislota konsentrasiyasi, uning miqdori, bosimi, harorati, tog' jinsi tavsifi va boshqalarga bog'liqdir.

Quduq tubi atrofiga 8-15 % konsentrasiyalı tuz kislotali eritma bilan ishlov berish samarali hisoblanadi. Yuqori konsentrasiyalı tuz kislota eritmasi bilan ishlov berish natijasida quduq jixozlarining mustahkamligiga ta'sir qilib ularni tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Gips bilan reaksiyaga kirishi g'ovakliklarda qoldiqlar hosil qiladi. Past konsentrasiyalı tuz kislota eritmaları yordamida ishlov berishda kislota eritmasi miqdorini ko'proq olishga va reaksiya natijalarini chiqarib olishda qiyinchiliklar tug'diradi. 1 m qalinlikka ishlov berish uchun 0,4-1,5 m³ hajmda konsentrasiyasi 8-15% bo'lgan kislota eritmasi kerak bo'ladi.

Kam o'tkazuvchan kollektorlardan tuzilgan qatlamga va past debitli quduqqa ishlov berishda 0,4-0,6 m³ hajmda kislota eritmasi ishlatiladi. Yuqori o'tkazuvchan qatlamlar uchun 0,8-1 m³ hajmda kislota eritmasi qo'llaniladi. Yuqori o'tkazuvchan tog' jinslaridan tuzilgan va boshlang'ich debiti yuqori bo'lgan quduqlar uchun 1-1,5 m³ hajmda kislota eritmasi qo'llaniladi.

Qatlam bosimi kichik bo'lgan quduqlarda 10-12% li tuz kislotali eritmasi bilan ishlov berish kerak bo'ladi. Yuqori bosimli quduqlarda 12-15% li tuz kislotali bilan ishlov berilsa yaxshiroq natija beradi. 8% li kislota eritmasi bilan karbonatli qum toshlardan tuzilgan qatlamlarga ishlov berish uchun qo'llaniladi.

Quduq tubiga ishlov berishda qo'llaniladigan tuz kislotali quduq jixozlarini emiradi. Buning oldini olish uchun ingibitorlar qo'shiladi. Ingibitor sifatida formalindan foydalaniladi. Bir tonna kislota eritmasiga 6 kg formalin qo'shilsa, eritmaning karrozion aktivligini 7-8 marta kamaytiradi.

Eng ko'p tarqalgan ingibitor – unikol PB-5 – qo'ngir rang suyuqlik bo'lib, 0,25-0,5 % gacha unikol qo'shilsa, karrozion aktivligini 31-42 martagacha kamaytiradi. Unikol tuz kislotasida to'liq eriydi, lekin suvda erimaydi. Shuning uchun reaksiyadan keyin kislota eritmasi CaCl va MgCl ga aylanganda undan qoldiq qoladi, bu uning kamchiligidir. Shuning uchun uni juda kam miqdorda 0,1 % qo'shiladi va bu karrozion aktivligini 15 martagacha kamaytiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan ingibitorlardan tashqari I-I-A va uratropin aralashmasi va UFE_8 lardan foydalaniladi.

Ishlov berishning samarasini oishrish uchun intensifiqatorlar ya'ni sirt faol moddalar ko'shiladi.

OP-10, UFE_8 , karbozalin O, katapin va katamin kabi sirt faol moddalar qo'shilganda kislotaning karbonatlar bilan reaksiyasi 3 marta kamayadi.


Tuz kislotasi zavodda yuqori konsentrasiyada ishlab chiqariladi. Uni bu holatda qo'llash qiyin, uni qo'llashdan oldin kerakli konsentrasiyagacha suv bilan aralashtiriladi.

Tuz kislotasining 4 xil turi ishlab chiqariladi:

- a) Sentitik texnik tuz kislotasi;
- b) Texnik tuz kislotasi;
- v) Organik kelib chiqishli obgazlardan tayyorlangan tuz kislotasi
- g) Zavodni o'zida ingibirlangan tuz kislotasi;


Quduqqa tuz kislotali ishlov berishda kislota eritmasi markaziy kislota bazasida yoki ishlov berilayotgan quduq atrofida tayyorlanadi. Buning uchun jadvalda ko'rsatilgan suv miqdoridan umumiy qo'shiluvchilar uksus kislotasi va agar kerak bo'lsa, ftor kislotasi miqdorlari yigindisini ayirib o'lchov idishiga quyiladi. Keyin ko'rsatma bo'yicha hisoblab chiqilgan kislota miqdori suvning ustidan idishga solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Zichligi bo'yicha eritma konsentrasiyasi tekshiriladi va agar suv kam bo'lsa – suv, kislota kam bo'lsa – kislota qo'shiladi. Keyin eritmaga BaCl qo'shib, u aralashib ketgunga qadar aralashtiriladi. Aralashtirilib bo'lgandan keyin 5 minut o'tkazib intensifikator

qo'shiladi va eritma yana aralashtiriladi. Eritma to'liq oqarguncha 2-3 soat tinch qoldiriladi va shundan keyin eritma ishlov berishga tayyor bo'ladi.



2.2-rasm: Oddiy ishlov berishda jixozlarni joylashish tarxi: 1- Azinmash nasos agregati; 2-Agregatga o'rnatilgan kislota idishi; 3-Tirkamaga o'rnatilgan kislotali idish; 4-Kislota uchun idish; 5-Bostiruvchi suyuqlik uchun idish; 6-Quduq usti.

QUDUQLARGA KISLOTALI ISHLOV BERISH SXEMASI



2.1.2-rasm: Quduqqa tuz kislotali ishlov berish tarxi.

Haydash jaryonini 3 bosqichga bo'lish mumkin: oldin neft haydash, keyin eritma haydash va qatlarga bostirish. Tuz kislotali ishlov berish tarxi 13.2-rasmda keltirilgan. Quduqqa kislota bostirilgandan so'ng bir necha soat tinch holatda qoldiriladi. Bosimga qarab kislotani ushlab turish vaqti quyidagi jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval


Bosim		Ushlash vaqti, soatda
Mn/m ²	Kg/sm ²	
0,7 acha	7 gacha	3-6
0,7-11,0gacha	7-10 gacha	12-24
2,0-6,0 gacha	20-60gacha	30

2.10. Issiqlik kimyoviy va issik kislotali ishlov berish

Quduqqa issiqlik kimyoviy va issik kislotali ishlov berish deb, issiq tuz kislotasi bilan ishlov berish jarayoniga aytiladi. Quduqda tuz kislotasi va reagentlar (Mg va boshqalar) reaksiyaga kirishib issiqlik ajralib chiqadi ya'ni ekzotermik reaksiya ta'sirida qizish ro'y beradi.

Quduqdan parafin va smolalarni tozalash neft oqimini yaxshilash uchun issiqlik kimyoviy usuldan foydalaniladi.

Quduq tubida yuqori harorat hosil qilish uchun quduqqa kaustik soda, Mg va boshqalar tushirilib, tuz kislotasi bilan ta'sirlashadi va issiqlik ajralib chiqadi. Kislota va Mg o'rtasida quyidagi reaksiya jarayoni ro'y beradi.



1 gramm molekula (og'irligi bo'yicha 24 gramm) Mg kislotada erishida 110,2 kkal issiqlik ajralib chiqadi yoki 1 kg Mg tuz kislotasida eriganda 4520 kkal issiqlik ajraladi. 1 kg Mg ning to'liq erishi uchun 18,62 litr konsentrasiyasi 15% bo'lgan tuz kislota eritmasi kerak bo'ladi.

Tajriba usulida 15% li kislotada 1 kg Mg to'liq eriganda quyidagi ko'rsatkichlar olingan.

70 litr kislota reaksiyadan keyingi harorati 85⁰C

80 litr kislota reaksiyadan keyingi harorati 75⁰C

100 litr kislota reaksiyadan keyingi harorati 60⁰C

120 litr kislota reaksiyadan keyingi harorati 50⁰C.

Kislotali ishlov berish murakkab jarayon hisoblanadi. Quduqqa ikki bosqichda ishlov beriladi: birinchi bosqichda issiqlik kimyoviy usulida ishlov beriladi; ikkinchi bosqichda oddiy kislotali ishlov beriladi.

2.11. Quduq tubiga issiqlik usulida ta'sir etish

Ko'plab neft quduqlarida quduq tubi qismiga parfin va smolalar qotib qolishi kuzatiladi. Parafinsizlantirish uchun kimyoviy usullar bilan bir qatorda issiqlik usullari ham qo'llaniladi. Issiqlik usulida qotib qolgan parafinlarni eritib er yuziga chiqariladi.

Quduq tubini isitish uchun quduqqa issiq neft haydaladi yoki elektro isitkichlardan foydalaniladi.

Quduq tubini qizdirish uchun mo'ljallangan neft o'lchov idishda harakatlanuvchi bug' qurilmasi PPU yordamida qizdiriladi. Isitilgan suyuqlik quduqqa NKQ orqali haydaladi. Quduqning xalqa qismidan haydalsa, quduq devorini qizdirish uchun juda ko'p issiqlik sarflanadi.

Quduq tubini qizdirish uchun elektr isitkichlardan ham foydalaniladi. Quduq tubini qizdirish samarali bo'lib, quduq debiti 1 dan 12 martagacha ortadi. Uning ta'siri 2-10 oygacha davom etadi.

2.12. Qatlamni gidravlik yorish


Qatlamni gidravlik yorish usuli – o'tkazuvchanligi yomon tog' jinslaridan tuzilgan neft quduqlarini maxsuldorligini oshirish va haydovchi quduqlarda qatlamning qabul qiluvchanligini oshirishda eng samarali usullardan hisoblanadi. Bu usulda er yuzidan haydalayotgan yuqori bosimli suyuqlik yordamida maxsuldor qatlamda bosim hosil qilib mavjud yoriqlarni kengaytirib quduq maxsuldorligi oshiriladi. Hosil qilingan yoriqlar bosim tushgandan keyin

qayta yopilib qolishini oldini olish uchun qatlamga kvars qumlari suyuqlik bilan haydaladi.

Hosil qilingan yoriqlar qatlamga bir necha o'n metr lab kiradi va quduq maxsulotini bir necha o'n marotaba oshiradi.

Qatlamni gidravlik yorish quyidagi ketma-ketlikda bajariladigan jarayonlar orqali amalga oshiriladi.

- 1) Qatlamda yoriq hosil qilish uchun suyuqlikni haydash
- 2) Hosil qilingan yoriqlarni to'ldirish uchun qum tashuvchi suyuqlikni qum bilan haydash.
- 3) Yoriqlarga qumni bostirish uchun, bostiruvchi suyuqliklarni haydash.



2.3-rasm.Qatlamni gidravlik yorish tarxi.

1-yoruvchi suyuqlikni haydash; 2-qum-suyuqlik aralashmasini haydash; 3-bostiruvchi suyuqlikni haydash.1-glina; 2-neft qatlami.

Katlani yorish uchun quduq tubida bosimni quyidagicha aniqlaymiz:

$$P_{\text{yor}} = 1,5 H_{\text{pg}} \div 2,5 H_{\text{pg}} \quad (2.1)$$

bu erda: N - quduq chuqurligi; m da ; r - tog' jinsi zichligi; kg/m³ da;

Asosan yoruvchi suyuqlik va qum tashuvchi suyuqlik sifatida bir-xil suyuqlikdan foydalaniladi. Shuning uchun bu suyuqliklarni atashni soddalashtirish uchun yorish suyuqligi deb ataladi. Ikki xil yoruvchi suyuqligi qo'llaniladi: 1) uglevodorod asosli suyuqlik; 2) suv asosli eritmalar.

Ayrim hollardagina suv-neft' va neft-kislota emul'siyalari qo'llaniladi.

Neft quduqlarida uglevodorodli suyuqliklardan foydalaniladi: ularga yuqori qovushqoq neft maxsulotlari, mazut yoki uning neft bilan aralashmasi, dizel yoqilg'ilari yoki xom neft, neftni sovun bilan aralashmasi.

Suv haydovchi quduqlarda suv eritmaları qo'llaniladi: ularga suv, sul'fit-spirтли bardani suvli eritmasi, tuz kislota eritmaları va har-xil reagent bilan aralashtirilgan suv.

Maxsuldor qatlam o'tkazuvchanligiga qarab yoruvchi suyuqlik qovushqoqligi 50 dan 500gacha oraliqda tanlab olinadi.

Qatlamni gidravlik yorishda yoriqni to'ldiruvchi qumlar quyidagi talablarga to'liq javob berishi kerak:

1)mexanik mustahkam bo'lishi, yoriqlarni orasida ezilib ketmasligi kerak.

2)yuqori o'tkazuvchanlikni saqlab qolishi kerak.


Bu talablarga kvars qumi to'liq javob beradi.Qum zarralari o'lchami 0,5 mm dan 1 mm gacha bo'ladi.Qatlamga qumni haydash miqdori tog' jinsi yorilish darajasiga bog'liq. Ko'p yoriqli tog' jinslaridan (ohaktosh va dolamit) tuzilgan qatlamlarga bir necha o'n tonna qum haydash mumkin.

Qatlamni gidravlik yorish texnologiyalari quyidagilardan tashkil topgan bo'ladi. Ishlov berishdan oldin quduq oqimi tekshiriladi, uning qabul qiluvchanligi va yutilish bosimi aniqlanadi. Tekshirish natijasida yorish suyuqliklari miqdorini, haydash bosimi aniqlanadi va ishlov berilgandan keyingi natijani tahlil qilinadi.

Qatlamni gidravlik yorishdan oldin quduq qumli va loyli tiqinlardan tozalanadi va quduq devori ifloslovchi qoldiqlardan yuviladi. Ko'p hollarda

kislotali ishlov beriladi yoki qatlam tekshiriladi. Bu ishlar yorish bosimini pasaytiradi va uning samaradorligini oshiradi.

Qatlamni gidravlik yorish uchun quduq tubi jixozlari tarxi 10-rasmda keltirilgan.



2.4-rasm.Qatlamni gidravlik yorishda er osti jixozlarining joylashish tarxi.


1-mustahkamlovchi quvurlar tizmasi; 2-nasos-kompressor quvuri; 3-gidravlik yakor; 4-paker; 5-maxsuldor qatlam; 6-dumcha.

Yuvilgan, tozalangan va maxsus shablonda tekshirilgan quduqqa 89-114 mm li quvurlar tizmasi tushirilib, u orqali yorish suyuqligi haydaladi. Qatlamni gidravlik yorishda kichik diametrli quvurlardan foydalanilmaydi, chunki undan suyuqlik haydalganda ko'p bosim yo'qotiladi. Mustahkamlovchi quvurlar tizmasiga yuqori bosim ta'sir qilmasligini ta'minlash uchun yoriladigan qatlam yuqorisidan paker o'rnatiladi.

Quduqda bosim oshirilganda pakerni tizma bo'ylab harakatlanishini oldini olish maqsadida gidravlik yakor o'rnatiladi.

Quduq usti yoruvchi suyuqlik haydovchi agregatlar qo'shilgan maxsus boshcha bilan jixozlanadi.

Gidravlik yorish jarayonida quduq usti jixozlanishi tarxi quyidagi rasmda keltirilgan.




2.5-rasm.Qatlamni gidravlik yorishda er usti jixozlarining joylashish tarxi.


1-quduq; 2-4AN-700 agregatlari; 3-qumarashtiruvchi ZPA agregati; 4-yordamchi nasos agregatlari; 5-qum tashuvchi suyuqlik uchun idish; 6-yoruvchi va bostiruvchi suyuqliklar uchun idishlar.

2.13. Maxsuldor qatlamni qumsuyuqlik aralashmasi bilan teshish

Teshishning bu usuli quduq devoriga yunaltirilgan maxsus teshgich uchligidan suyuqlik qum aralashmasi katta tezlikda harakatlanishidagi kinetik energiyasi va devorni emirish xususiyatiga asoslangan. Qisqa vaqt ichida mustahkamlovchi quvurlar tizmasi, sement xalqa va qatlamda teshik yoki ariqcha simon kanal hosil qiladi.



12-rasm



13-rasm

2.6-rasm. Suyuqlik-qum aralashmasi yordamida teshish tarxi.

2.7-rasm. Hidroperforator: 1-xvostovik-pero; 2- korpus; 3-sharikli klapan; 4-nasadkani ushlovchi; 5-stopop xalqa; 6-nasadka; 7-tiqin.

Suyuqlik-qum aralashmasi quduq usti atrofiga o'rnatilgan nasoslar yordamida nasos kompressor quvurlari bo'ylab teshgich uchligiga o'rnatiladi.

Bu usul yangi burg'ilangan quduqlarda maxsuldor qatlamni teshishda hamda ishlatish quduqlarining maxsuldorligini oshirish uchun teshishda ishlatiladi.

Qum suyuqlik aralashmali teshish usulidan quduqda bir qator ishlarni bajarishda ham qullaniladi:

- quduqda mustahkamlovchi quvurlar tizmasini, NKQni, burg'ilash quvurlar tizmasini teshishda.

- quduqdagi metall, sement stakanlarini va qattiq qumli tiqinlarni buzishda.

- quduq tubi atrofini kengaytirishda


Gidroperfaratorda uchlikni va tiqinni ushlagich uchun 10 ta ingnachaga ega bo'ladi. Uchlikni ushlagich keng tashqi gaykaga ega bo'lib, u teshgichni haydalayotgan ishchi agentning qaytib emirishdan saqlash uchun mo'ljallangan. Ushlagich gaykasi va uchlik ishdan chiqqanda boshqasiga almashtiriladi.

Teshgich uchligi o'lchami diametrii 4,5 mm va uzunligi 20mm bo'lib, emirilmaydigan materialdan tayyorlanadi.

2.14.Quduqlarni torpedalash

Quduqda neft va gaz oqimini yaxshilash uchun torpedalash jarayonida zaryadlangan portlovchi torpeda quduqqa tushirilib, maxsuldor qatlam qarshisida portlaydi. Torpeda portlash natijasida quduq deametrini kattartiruvchi g'ovaklar hosil bo'ladi. Quduqdan radial yunalishda yoriqlar to'ri hosil bo'ladi.

Portlatish usulida ta'sir etish qisilgan burg'ilash va mustahkamlovchi quvurlarni bo'shatishda, burg'ilashga yo'l qo'ymayotgan metallarni parchalash va quduq tubidan chetga olishda, zich qum tiqinlarini buzishda, fil'trlarni tozalashda va boshqa jarayonlarda qo'llaniladi.



2.8- rasm: Torpeda moslamasi tarxi: 1- po'lat arqon; 2- Sekin ta'sir ko'rsatiadigan portlatgich; 3-saqlovchi prujina; 4-elektromagnitli tashlagich; 5-elektromagnit plunjeri; 6-elektromagnit; 7-Chugun qoplama; 8-osma

Torpeda moslamasining tarxi 13.8-rasmda keltirilgan. Torpeda trotil va geksojenning bir-xil miqdoridagi qotishmasi bilan tayyorlanadi. Torpedani quduqqa tushirishda mustahkamlovchi quvurlar tizmasiga zaryadni ishqalanishidan saqlash uchun qogozbakelitli silindrdan foydalaniladi. Zaryad 40 mn/m^2 bosim va 75°C haroratda ishlashga mo'ljallangan.

Torpeda zaryad kattaliklari quduq diametri, portlash maqsadi va VV ning xossalriga qarab tanlanadi. Zich tog' jinslaridan tuzilgan qatlamlarni torpedalashda ko'p zaryad talab qilinsa, bo'sh tog' jinslarini torpedalashda uncha ko'p bo'lmagan zaryadlar bilan amalga oshiriladi.

Quduq tubi atrofi ochiq bo'lgan quduqlarda torpedalashdan ko'proq foydalaniladi.

Mustahkamlovchi quvurlar tizmasini shkastlanishdan saqlash uchun torpeda yuqorisiga suyuq yoki qattiq «mustahkamlagich» quyiladi. Suyuq mustahkamlagich sifatida – qum, glina yoki sement ko'prigidan foydalaniladi.

Mustahkamlovchi quvurlarni saqlashda qattiq mustahkamlagichni, suyuq mustahkamlagichdan yaxshiroq lekin jarayon o'tkazilgandan keyin yaxshiroq tozalashga to'g'ri keladi. Quduqlarda torpedalash ishlarini geofizik partiyalar tomonidan olib boriladi.

2.15. 2017 yilda davomida konda qilingan ishlar haqida ma'lumot

1. Burg'ulash bo'yicha:

„Kruk” koni №112 qudug'ida burg'ulash ishlari yakunlanib, quduq favvora usulida ishlar qilinmoqda. Quduqdan jami 276 tn. neft qazib olinadi.

«Kruk» konidagi №113 quduqda burg'ilash ishlari davom etmoqda va natijada kutilayotgan kunlik neft 3 tn.

2. Kapital ta'mirlash ishlari bo'yicha:

„Kruk” koni №103, 23, 26 halokatli NKK larni bartaraf etish, Garb.Kruk №1, 5, 45 va Matonat №1 quduqlarda izolyatsiya perforatsiya ishlari o'tkazilib kunlik neft qazib olish ko'rsatkichlarini 14,5 tonnaga ko'paytirishga erishildi. Hozirda 2 stvolni burg'ilashdan chiqqan Kruk №54 quduqni o'zlashtirish ishlari davom etmoqda.

3. Joriy ta'mirlash buyicha:

Konda neft qazib olishni bir meyorda ushlab turish maqsadida 2017 yil 12 oyligida «Kruk», Garbiy Kruk, Matonat koni bo'yicha 124 ta quduqda joriy ta'mirlash ishlari olib borildi va natijada oldingi mahsuldorligiga nisbatan 76 tn. neft qazib olishga erishildi.

4. Intensifikatsiya yunalishi buyicha:

Kruk konida 6 ta quduqda, ya'ni №№90,101,37,24, 34,29 suv haydovchi quduqlarida kislota ishlov ishlari o'tkazildi va qatlamga qo'shimcha 61 m³ ko'prok suv haydashga erishildi.

13 ta quduqda ya'ni №№44, 36, 55, 41, 51, 15, 55, 63, 94, 38, 52, G'arbiy Kruk 25,22, neft qudug'iga antinakipin bilan ishlov berildi. Quduqlardan kunlik qo'shimcha jami 8 tonna neft qazib olinmoqda.

Konda №№104, 103 quduqlarga (PGSKO) bilan ishlov berildi va hozirda quduqda kunlik mahsuldorligi 2,4 tn, oshirildi.

Harakatdan to'xtab turgan № 1-sonli quduqga maxsus teshik ochilib 1tonna qo'shimcha neft qazib olishga erishildi.

Kruk, G'arbiy Kruk konlarida 27 ta quduqda kislotali ishlov ishlari o'tkazilib kushimcha 25 tonna neft qazib olindi.

Kruk va Matonat konlarida jami 21 ta quduqda (PGSKO,SKO, Noviy sastav, Antinakipin) ishlari o'tkazilib 6,5 tn. neft qo'shimcha qazib olishga erishildi.

5. Texnologiya:

Konda №№1,15 neft qudug'i gazlift usulida ishlatila boshlangandan keyin shleyf liniyasida muammolar borligi sababli liniyaning ma'lum bir qismi almashtirildi.

Konda 1, 2, 4, 5-NYP lariga qo'shimcha sig'imi $V=50 \text{ m}^3$ bo'lgan sig'imlar montaj qilinib ishga qo'shildi va quduqlarning uzluksiz ishlashi ta'minlandi.

Konda NTK dagi sig'im №1 RVS ta'mirlandi.

«Matonat» koni №1 o.e quduqda burg'ilash ishlari yakunlanib quduq doimiy ishlashini ta'minlash uchun №6 quduqga shleyf liniyasi tortildi va hozirda quduq sig'imi $V=25 \text{ m}^3$ bo'lgan sig'imga ishlatilmoqda.

Konda №109 quduq quvur ortidan qismidan neft tashlagani uchun quvur ortidan ambarga quvur tortildi.

«G'arbiy Kruk» koni 1 NYP ga «G'arbiy Kruk» № 7,8 gaz beruvchi quduqlar gazini ajratib olib «Kemachi SKS» ga yetkazib berish uchun 50 m^3 sig'im va separator o'rnatildi va ishga qo'shildi.

№4 NYP ga 50 m^3 sig'im o'rnatildi va quduqlar uzluksiz NYP ga ishlashi ta'minlandi Matonat 1 NYP ga qo'shimcha 50 m^3 sig'im o'rnatildi va quduqlar uzluksiz NYP ga ishlashi ta'minlandi.

Konda №15 quduqning shleyf liniyasi 132 m yaroqsiz qismi almashtirilib neft qazib olishni bir meyorda bo'lishi ta'minlandi.

Konda № 4 sonli neft qudug'i shleyf liniyasi №14 quduq shleyf liniyasiga ulandi va quduq №80 quduq ambariga doimiy ishlatilishi ta'minlandi.

NTK dagi sig'im RVS 1000 №1 da ta'mirlash ishlari tuliq tugatilib ishga qo'shildi va neft xom ashyosini texnologik tayyorlashni yaxshilashga erishildi.

Konda № 100 sonli quduqning obvyazkasi o'zgartirildi.

Konda № 6 NYP da SP-2 Separator chiqish liniyasi tekshirilib tuz bosganligi aniqlandi va almashtirildi. № 94 quduqdan SP-2 sonli NYP ga shleyf liniyasiga tortildi.

3. Atrof muhit muhofasi.

3.1. Er osti boyliklarini muhofaza qilish.

Tabiat muhofazasi, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ish bilan birgalikda er osti boyliklaridan eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi davrda va texnika – texnologiyalarning globallashuvi davrida davlatimiz elektro – energetik bazamizni kuchaytirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi [8, 18].

Respublikamizda gaz qazib ko‘rsatgichlarini o‘tib borayotganligi hamda neft mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshib ketayotganligi sababli er osti boyliklarimizdan kompleks ravishda oqilona tejamkorlik bilan foydalanish va ularni asrash va himoya qilish oldimizda turgan muammolaridan biridir.

Davlatimizda Oliy majlis tomonidan mineral xom ashyolardan foydalanishni yaxshilash, er osti va er usti boyliklarini geologik qidiruv ishlarini jadallashtirish bo‘yicha keng miqyosdagi programmalarni amalga oshirish masalasi qo‘yilgan. Bu programmada er osti va er usti boyliklar bilan oqilona foydalanish ta‘minlash va tejamkorlik bilan foydalanish bo‘yicha bir qator qonunlar ishlab chiqilmoqda.

Er osti boyliklaridan foydalanish va ularni himoya qilishning bosh yo‘nalishlaridan biri tejamkorlik bilan foydalanish, tog‘ kon qidiruv ishlarini, burg‘ilash va konlarni ishga tushirishni ilmiy asoslangan rejalar asosida amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Er osti boyliklarini va atrof muhitning muhofazasi muammolari erlarni, er ust iva er osti atmosferani himoya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib, sanoatning neft gaz tarmoqlarida bunday muammolarning bosh masalasi sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqish mumkin:

a) boyliklarni joylashuvini kompleks geologik o‘rganish, neft va gaz, va shunga yo‘ldosh bo‘lgan foydali qazilmalarning zahiralarining sifatli va miqdori to‘g‘risida asoslangan ma‘lumotlarni olish;

b) konlarni qidirish va ishlatish jarayonlarida otilmalar, ochiq favvoralar, qatlam ichra va quduq ichra oqimlarni oqib ketishi jarayonlarida neft va gaz zahiralarini yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik;

v) qazib olingan neftni, yo'ldosh gazni va tabiiy gazlarni kondensatni ishlatish jarayonida, tayyorlashda va neft-gazni saqlashda yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik kerak;

g) kam harajat sarflab neft, gaz va kondensat hamda boshqa yo'ldosh foydali qazilmalarni zahiralarini qazib olishni maksimal ko'rsatgichiga erishish;

d) burg'ilash, ishlatish, quduqlarni tadqiqotlash, neft va gazni er osti saqlagichlarini qurish va ishlatish davrida ifloslanishiga, zaharlanishiga, deformatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

3.2. Er osti boyliklarini muhofaza qilishni tashkillashtirish.

Respublikamizda qonunchilikka asosan er osti boyliklaridan foydalanish uchun: geologik o'rganish; foydali qazilmalarni qazib olish, er osti inshootlarini qurish va ishlatish foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan jarayonlardir.

Boyliklardan foydalanish muddatsiz yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin.

Boyliklardan muddatsiz foydalanish deganda oldindan ishlatish muddatlari o'rnatilmaydi. Agarda vaqtinchalik foydalanilganda 10 yil muddat belgilanadi. Kerak bo'lganda vaqtinchalik foydalanish muddati uzaytirilishi mumkin.

Harakatdagi qonunlar asosida boyliklardan foydalanishda foydalanuvchilar quyidagi talablarni bajarishga majburdir:

1) geologik o'rganishning to'liqligi, er osti boyliklaridan tejamkorlik va kompleks foydalanish;

2) boyliklardan foydalanilganda ishlarni olib borishda ishlovchi xodimlar va aholining xavfsizligi ta'minlanishi kerak;

3) atmosfera havosini, erlarni, o'rmonlarni, suv va ob'ektlarni o'rab turgan tabiiy muhitlar hamda binolar va inshootlar ishlarni zararli ta'sir etishi bilan bog'liqdir;

4) boyliklardan foydalanganda hayvonat olamini, tabiiy va madaniy xotiralarni shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Neft va gaz konlarini ishlatish faqat ishlatishning texnik qoidalari bo'yicha ishlangan sxemalar va loyihalarga mos kelishi kerak. Buning uchun asosiy va yo'ldosh foydali qazilmalarni qazib olishda tejamkor va samarali usullardan foydalanish ko'rsatilgan me'yoridan ortiqcha yo'qotilishga yo'l qo'ymaslik, foydali qazilmalarni zahiralarini asoslanmagan yo'qotilishlarga olib kelganda konning boy uchastkalarini tanlab ishlatishga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari konlarni ishlatish jarayonida zahiralarining harakati va yo'qolishi holati hisobga olinishi hamda er osti boyliklarini va atrof muhitni muhofazasi choralari oldindan ko'rilishi kerak.

Neft va gaz sanoat tomonidan boyliklarni muhofaza qilish ishlari davlat tomonidan nazorat qilinadi:

1) neft va gaz konlarini to'g'ri ishlatishda boyliklarni himoya qilish talablarni bajarish;

2) zahiralarini hisob olish tartibiga rioya qilish;

3) boyliklardan foydalanilganda ishlarni amalga oshirishda xavfsizlik qoidalariga va normalariga rioya qilish kerak;

4) konlarni ishlatishda geologik ishlarni amalga oshirish qoidalariga rioya qilinishi kerak.

Er osti omborlarida neft, gaz va boshqa moddalar va materiallar bilan er osti va usti ob'ektlarini ifloslanishining oldini olish choralariga to'liq rioya qilinishi kerak. Korxonalardan chiqadigan ishlab chiqarish suvlarini ta'sirida er osti suvlarni ifloslanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

3.3. Neft va gazni qidirishda, ishlatishda va saqlashdagi muhofaza qilish tadbirlari.

Er osti boyliklarini himoya qilish tadbirlari neft va gaz quduklarini qazish, konlarni ishlatish va foydalanishda asosiy texnologik jarayonlarining eng muhim elementlari va tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tadbirlar asosan ishlab chiqarish jarayonlarini samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga hamda neft, gaz va kondensatni to'liq qazib olish va zararsizlantirishga yo'naltirilgandir.

Er osti gaz omborlarining qurilishida tizmalarni birikish germetikligiga va ularni mustahkamligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Buning uchun GKM turidagi 219x146 va 245x146 mm o'lchamdagi tizma kallaklari sharni teskari klapanlar va quduqlarni mustahkamlashda ko'proq qo'llaniladi. Bundan tashqari er osti omborlarini maxsus konstruksiyalarini yaratish, idishlarni er usti va yuqori oraliqda suvli gorizontlardan ishonchli himoya qilishni ta'minlash talab qilinadi.

Quduqning debiti 500 ming m³/kun bo'lganda quduqni kichraytirilgan 145 mm-dan kichik bo'lgan burg'ilar bilan burg'ilanganda, gazni debiti yuqori bo'lganda (325 mm gacha) katta diametrlarda burg'ilanganda va boshqa texnik va texnologik tadbirlarda quduqning germetikligiga yuqori talabalar qo'yiladi.

Quduqning ustiga nazorat qulfakli favvora armaturasi o'rnatiladi; armaturaning qulfagidan rul chambaragi olingan bo'lishi, manometrlar qaytirilgan, tiqinlar germetiklangan, qulfak flanslar bekitgichlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

